E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

FARZAND TARIBYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA MAS'ULIYATI

G.N.Bozorova, G.Aslanova
NDKTU akademik litseyi o'qituvchilari

Annotatsiya
Bugungi dolzarb masalalardan biri farzandlarimiz tarbiyasi.Ularning tarbiyasida qanday jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Ota-ona mas'ulligini oshirish, bu yo'lda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar hayotiy tamoyilga aylanishi kerak. Buyuk ajdodlarimiz bu haqida bildirgan fikrlari ham o'rinlidir. Jamiyatning keljagi bo'lgan yoshlar tarbiyasiga doim e'tiborni qaratish vazifamiz bo'lishi kerak.
Kalit so'zlar

Hadisi sharif, Shoh Kaykovusning "Qobusnoma"asari, illatlardan asrash, ruhiy tadqiqotlar, kechikkan tarbiya.

Buyuklar farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelganlar.Ular oilada ota-onalarning bola tarbiyasidagi e'tibori yuzasidan fikrlarini o'z asarlarida keltirib o'tishgan.Hadisi shariflarda shunday deyiladi: "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!", "Hech bir ota-ona o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros berolmaydi". Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmog‘ligi kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Yoshlar ittifoqi" ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta`kidlaganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O`z bolangni o`zing asra!" degan da`vat faqat quruq shior bo`lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya`ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas`uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo`yish vaqti keldi, deb o`ylayman"[1].

Haqiqatan ham har bir ota-ona o`z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizni tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma`naviy sog`lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o`zi tarbiyalangan bo`lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o`rganish, kitob o`qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o`qishga qiziqtira bilish lozim. Farzandıınıtıı tarbiyasida har bir ota-ona o`z mas`uliyatini har bir daqiqada his qilib yashashi lozim.

Shoh Kaykovusning "Qobusnoma" asarida tarbiya, axloq masalalari asosiy o‘rinni egallaydi. Kaykovus o‘z asarida tarbiyaga alohida e'tiborni qaratar ekan, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan deb biladi.Uning fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir. Shuningdek do‘st-u dushmanga ham qanday munosabatda bo‘lish kabi masalalarni keltirib o'tadi. Bola boshidan deyilganidek, farzandni tug‘ilgandan tarbiyalash, odob-axloq me'yorlarini o‘rgatish, ilm-u hunarli qilish, bolaning mehnatga bo‘lgan ko‘nikmasini hosil qilish zarurligini, aks holda "kechikkan" tarbiyaning hech bir ta'siri bo‘lmay, zarur samarani bermasligini aytib o‘tadi.Shuning uchun muallif asarda yoshlarning xulq-atvoriga, fe'liga alohida e'tibor berib, shunday deydi:" Ey farzand, agar farzanding bo'lsa, anga yaxshi ot qo'yg'il.Unga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il.Ammo

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o'z qo'ling bila urmag'il, muallimlarning tayog'i bila qo'rqitg'il.Bolalarga muallimlar adab bersunlar. U bir narsani orzu qilsa, qudrating yetguncha undin ayamag'il... ”[2].

Bizga ma'lumki, bu o'gitlar har qanday jamiyatda ahamiyatlidir.Oilada bolaga tarbiya berishda uning hatti-harakatlariga nisbatan rag'batlantirish yoki qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish, tanbeh berish, jazolash tarbiyada sinalgan usullardan.Oilada ota-onaning alohida o'rni borki, ona bolani jazolayotganida ota uning tarafini olmasligi, ota tarbiya berganida ona aralashmasligi kerak.Bu holat bolani ikkiyuzlamachi, hech qanday tanbehlardan qo'rqmaydigan, ularning har ikkalasini ham hurmat qilmaydigan darajaga eltadi. Bugun aksariyat ota-onalar farzandlarining tarbiyasidan xavotirda. Hatto farzandidan qo‘rqib yashaydigan ota-onalar ham bor. Ba’zi keksa ota-onalar noqobil farzandlaridan nolib, "boridan yo'g'i yaxshi" deb ko'ngillariga taskin bermay ilojsiz qolishmoqda. Ruhiy tadqiqot natijalariga ko'ra, inson fe'l-atvorining 80 foizi u 5 yoshgacha bo'lgan davrda shakllanib ulgurar ekan.Ayni shu davrda ota-onaning tarbiyadagi e'tibori, oilaviy muhitning sog'lomligi farzand kamolida katta ahamiyatga ega.

Demakki, bola tarbiyasi va ta’limi uchun ota-ona mas’ul ekan, buni to’g’ri anglagan holda ularning keljagini oldindan yaratishga harakat qilish kerak. “Bolaning inson sifatida shakllanishi, avvalo, oilada va bolalar bog’chasidagi sharoit va tarbiya ishlariga ham bog’liq. Olimlar va pedagoglar bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi deb hisoblaydilar.Shuning uchun farzandlarimiz kamoloti yo’lida biz mablag’ va imkoniyatni ayamasligimiz kerak”[3], -deb yozadi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o’z asarida.

Bugungi kunda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning bitmas-tuganmas xazina atalmish so'z durdonalaridan bahramand bo'lmagan, ummonga qiyos qilgudek ijod olamidan bir qatra yod bilmagan kishi bo'lmasa kerak.Ulug‘ allomaning yoshlarga qilgan mana bu murojaatida yaqqol anglashiladi: “Kimlar bilan bo‘lsang shulardeksan. Alar yomon bo‘lsa, sen ham yomon, alar yaxshi bo‘lsa –sen ham yaxshisan. Demak, yaxshilar etagin tutgan yaxshiroqdir. Ko‘pgina qobiliyatli kishilar yaxshilardan ayrildi, yomonlar suhbati ularni nobud qildi...”

"Farzandlaringiz qabringiz ustida yig’lay olishlari uchun ularning ko’zyoshlarini to’kmang",-degan ekan Pifagor. Qarangki, ota-ona o'z farzandiga bera olgan mehr-u muhabbatini umrining oxirigacha saqlashi kerakligi, farzandning ham mas'ulligi uqtirib o'tilgandir.Insonlar farzandli bo'lishdek baxtga erishish bilan birga ota-onalik vazifasini va mas'uliyatini ham to'la anglab yetishlari lozim deb o'ylayman. Chunki jamiyatimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz mas'ulmiz. Bolalar - oila va jamiyatning ko'zgusidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko'ra o'rnak ko'rsatish kuchli ta'sir etadi, ota-onalarning ko'rsatadigan o'rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o'rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamroq iz qoldiradi.Shunga qaramasdan, bugungi tahlikali zamonda farzandlarimiz ongini turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish eng asosiy vazifamiz bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Yoshlar ittifoqi ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqidan.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

2 .Mirziyoyev, Shavkat Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Tosh.”O’zbekiston”, 2017. 263-bet.

3.Qobusnoma / Kaykovus.-Toshkent:Yangi asr avlodi, 2018.117-bet

4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, 9-jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –768 b.

WORDLY
KNOWLEDGE